



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 йил «27» декабрь

VI-50-104-7-93-K/21

Булунғур туман ҳокимлиги

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmonining ijrosi to‘g‘risida

Tumanimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmoni ijrosini nazorat qilish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashining L sesiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmonining ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining o‘rinbosari A.Xazratqulovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (A.Xazratqulov), tuman Bandlik markazi direktori (B.Bosimov)ga:

joylarda og‘ir ijtimoiy ahvolga kelib qolgan ayollar bilan doimiy ishni tashkil qilish, “Ayollar daftari”ga kiritilgan tadbirkorliklarini boshlash istagida bo‘lgan xotin qizlarga ko‘maklashish borasida hamkor tashkilotlar bilan tizimli ishlarni tashkil qilish;

xalqparvar komissiyasi bilan hamkorlikda ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan taminlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ko‘lamini yanada kengaytirish.

3. Davlat dasturining ijrosini ta‘minlash uchun mas‘ul bo‘lgan tuman hokimining o‘rinbosarlari, tegishli bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari har oyda bir marotaba tashkil etilayotgan jamoatchilik eshittiruvida faol ishtirok etsinlar.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Rajabov) hamda tuman hokimining o‘rinbosari-Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (A.Xazratqulov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi v.v.b



N.Mamadiyarova